



**NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**  
*2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkga ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

16 915



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

862



Oilaviy korxonona

159



Unitar korxonona

7 388



Xususiy korxonona

29



Aksiyadorlik jamiyati

471




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat  
ming birlik



xususiy korxonona  
ming birlik



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra)




(o'tgan yilga nisbatan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


**Ustav fondi muayyan** aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yil yanvar-avgust oylarida 4 311 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % oshganligini ko'rish mumkin. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3 045 ta, xususiy korxonalar – 774 ta, oilaviy korxonalar – 342 ta, muassasalar – 31 ta va boshqalar – 119 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 862 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 400 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 831 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 377 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 342 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 195 taga yoki 232,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 16 915 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 490 taga yoki 126,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 531 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 277 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 045 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73 taga yoki 102,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 258 tani tashkil etib, ulardan 251 tasi yoki 97,3 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 50 taga yoki 24,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)






## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)







## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Mamlakatlar	Jami	Shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
 Rossiya Federatsiyasi	50	38	12
 Qozog'iston Respublikasi	13	9	4
 Qirg'iziston Respublikasi	10	9	1
 Tojikiston Respublikasi	10	8	2


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (10 006 ta), Chust (2 410 ta), Namangan (2 105 ta), Uychi (1 916 ta) va To'raqo'rg'on (1 822 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 325 ta), Norin (1 366 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1 483 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonalar	Qo'shma korxonalar
<b>Namangan viloyati</b>	<b>251</b>	<b>89</b>	<b>162</b>
<b>Namangan shahri</b>	<b>79</b>	29	50
<b>Mingbuloq</b>	<b>7</b>	5	2
<b>Kosonsoy</b>	<b>24</b>	5	19
<b>Namangan</b>	<b>13</b>		13
<b>Norin</b>	<b>11</b>	4	7
<b>Pop</b>	<b>24</b>	8	16
<b>To'raqo'rg'on</b>	<b>19</b>	8	11
<b>Uychi</b>	<b>17</b>	3	14
<b>Uchqo'rg'on</b>	<b>6</b>	4	2
<b>Chortoq</b>	<b>19</b>	7	12
<b>Chust</b>	<b>20</b>	10	10
<b>Yangiqo'rg'on</b>	<b>12</b>	6	6

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (34,6 %), Chust (8,2 %), Namangan (7,2 %), Uychi (6,5 %), Pop (6,2 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,6 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,5 %) tumanlar hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (20,9 %), Pop (9,8 %), Namangan (8,4 %), Chust (8,0%), To'raqo'rg'on, (7,9 %), Uychi (7,9 %), Mingbuloq (6,7 %), Uchqo'rg'on (6,6 %), Yangiqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (5,9 %), Chortoq (5,9 %) Norin (5,8 %), tumanlari ulushiga ega.




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 462 ta (jami ulushi 39,1 %), Uychi 1 136 ta (7,0 %), Namangan 1 089 ta (6,7 %), Pop 1 039 ta (6,5 %), Chortoq 977 ta (6,1 %), Kosonsoy 952 ta (5,8 %), Chust 868 ta (5,4 %), Yangiqo'rg'on tumani 857 ta (5,3 %), To'raqo'rg'on 773 ta (4,9 %), Norin 784 ta (4,8 %), Uchqo'rg'on 748 ta (4,7 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kam Mingbuloq 592 ta (3,7 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-avgust oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (98 ta), Yangiqo'rg'on (53 ta), To'raqo'rg'on (50 ta), Uychi (35 ta), Namangan shahri (28 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Kosonsoy (13 ta), Mingbuloq (9 ta), Chust (8 ta), Norin (4 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71 230-84-96**